INGLIZ TILI DARSLARIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Xidoyatova Feruza Anvarovna
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi,
2-kurs PhD tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi reproduktiv ta’lim usullaridan interaktiv va ijodiy yondashuvlarga o‘tish zarurati bilan belgilanadi. Maqolada kreativlikning nazariy asoslari, xususan, J. Gilfordning divergent fikrlash va G. Uollesning ijodiy jarayon bosqichlariga oid qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan aqliy hujum, muammoli ta’lim, rolli o‘yinlar, geymifikatsiya hamda ijodiy ta’lim muhitini yaratish kabi amaliy usullar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kreativ fikrlash, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari, divergent fikrlash, aqliy hujum, muammoli ta’lim, rolli o‘yinlar, geymifikatsiya, oliy ta’lim.*

Аннотация. *В статье рассматривается проблема развития креативного мышления будущих учителей английского языка в процессе их профессиональной подготовки в высших учебных заведениях. Актуальность исследования обусловлена необходимостью перехода от репродуктивных методов обучения к интерактивным и творческим подходам. Анализируются теоретические основы креативности, в частности концепция дивергентного мышления Дж. Гилфорда и модель творческого процесса Г. Уоллеса. Рассматриваются практические методы развития креативного мышления студентов: мозговой штурм, проблемное обучение, ролевые игры, геймификация и создание творческой образовательной среды.*

Ключевые слова: *креативное мышление, будущие учителя, профессиональная подготовка, дивергентное мышление, интерактивные методы, геймификация.*

Abstract. *This article examines the development of creative thinking among future English language teachers during their professional training in higher education institutions. The relevance of the topic is associated with the need to move*

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

from reproductive teaching methods towards interactive and creative approaches. The article discusses the theoretical foundations of creativity, particularly J. P. Guilford's concept of divergent thinking and G. Wallas's model of the creative process. It also outlines practical methods for developing students' creative thinking, including brainstorming, problem-based learning, role-play, gamification, and the creation of a supportive learning environment.

Keywords: *creative thinking, future teachers, professional training, divergent thinking, interactive methods, gamification.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim islohotlari sharoitida chet tili o'qituvchisining kasbiy roli sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bugungi o'qituvchidan nafaqat bilim berish, balki kreativ fikrlash, pedagogik muammolarga noodatiy yechimlar topish va dars jarayonida ijodiy muhit yaratish ham talab etiladi. Ingliz tili o'qituvchisi uchun muhim kompetensiyalardan biri — yangi g'oyalarni ishlab chiqish, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashish hamda o'quvchilarni darsga qiziqtiradigan innovatsion mashg'ulotlarni loyihalash qobiliyatidir.

Biroq bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan an'anaviy dasturlarda ko'pincha lingvistik va metodik bilimlarni egallashga ustuvor ahamiyat beriladi. Natijada tayyor metodik andozalarni o'zlashtirishga ko'proq e'tibor qaratilib, kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi yetarlicha yoritilmasligi mumkin. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kelajakdagi faoliyatida interaktiv, muammoli va loyihaga asoslangan ta'lim usullarini qo'llashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin [1]. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy usullarini ko'rib chiqish muhim hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yondashuv va metodlarni tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasini ilmiy jihatdan asoslash uchun psixologik va pedagogik konsepsiyalarga murojaat qilish zarur. Jumladan, amerikalik psixolog J. P. Gilford tomonidan tavsiflangan divergent fikrlash kreativlikning muhim tarkibiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Konvergent fikrlashdan farqli ravishda, divergent fikrlash muayyan muammoni hal etish uchun bir nechta muqobil va original g'oyalarni ishlab chiqishga imkon beradi [2]. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi faoliyatida bu, masalan, Present Perfect grammatik mavzusini faqat bitta standart usulda emas, balki o'quvchilarning bilim darajasi va idrok xususiyatlariga mos turli usullar orqali tushuntira olishda namoyon bo'ladi.

Ijodiy jarayonning ichki dinamikasini G. Uolles taklif etgan to'rt bosqichli model orqali izohlash mumkin [3]:

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

1. Tayyorgarlik (Preparation) — dastlabki ma’lumotlarni to‘plash va mavjud pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish.

2. Inkubatsiya (Incubation) — muammo ustida bevosita ishlash vaqtincha to‘xtatilganida, uning yechimi ong ostida shakllanishi.

3. Yoritilish (Illumination) — yangi g‘oya, noodatiy yechim yoki o‘ziga xos dars rejasining yuzaga kelishi.

4. Tekshirish (Verification) — taklif etilgan g‘oyani tanqidiy baholash va uni real ta’lim sharoitlariga moslashtirish.

Ushbu bosqichlarni hisobga olish oliy ta’lim o‘qituvchilariga talabalarning ijodiy faoliyatini maqsadli tashkil etish va puxta ishlab chiqilgan pedagogik loyihalar ustida ishlashlari uchun yetarli vaqt ajratish imkonini beradi.

Ingliz tili va uni o‘qitish metodikasi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Aqliy hujum va aqliy xarita

Aqliy hujum (brainstorming) usuli A. F. Osborn nomi bilan bog‘liq. Ushbu yondashuv g‘oyalarni erkin ilgari surish va ularni keyinchalik tahlil qilishga asoslanadi [4]. Mashg‘ulot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarga, masalan, “Education” mavzusi bo‘yicha uch daqiqa ichida imkon qadar ko‘proq assotsiatsiya va g‘oyalarni yozish topshiriladi. Keyingi bosqichda ular metodlar, baholash va texnologiyalar kabi toifalarga ajratiladi. Aqliy xarita esa g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni vizual tarzda ko‘rsatishga yordam beradi.

2. Muammoli ta’lim (Problem-Based Learning)

J. Dyuining qarashlarida tajriba va refleksiyaning ta’lim jarayonidagi ahamiyati alohida o‘rin tutadi [5]. Muammoli ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarga dars jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan, odatiy usullar bilan hal etish qiyin bo‘lgan real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlar taqdim etiladi. Masalan: “Bir guruh o‘quvchilar juftlikda ingliz tilida gaplashishdan bosh tortmoqda. Ularning muloqotga kirishishini ta’minlash uchun uchta kreativ usul taklif eting”. Bunday topshiriq til bilimlari bilan bir qatorda divergent fikrlashni ham talab etadi. Yana bir vaziyat: “Siz multimedia taqdimotidan foydalanishni rejalashtirgan darsni o‘tkazmoqdasiz, biroq maktabda elektr ta’minoti uzilgan. Proyektor va bosma darsliklardan foydalanish imkoniyati yo‘q. Darsni samarali davom ettirish uchun qanday choralar ko‘rasiz?” Bunday topshiriqlar bo‘lajak o‘qituvchilarni odatiy algoritmlardan tashqarida fikrlashga, mavjud resurslardan oqilona foydalanishga va muqobil pedagogik yechimlar ishlab chiqishga undaydi.

3. Rolli o‘yinlar va pedagogik simulyatsiyalar

L. S. Vigotskiy ijodiy tasavvurning inson tajribasi boyligi va xilma-xilligiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [6]. Rolli o‘yinlar (suhbat, pedagogik kengash, ekskursiya-

dars) bo‘lajak o‘qituvchilarga improvizatsiya qilish, vaziyatga tezkor munosabat bildirish va tabiiy muloqot olib borish imkonini beradi. Bu usul xato qilishdan qo‘rqishni kamaytirib, mustaqil va moslashuvchan fikrlashni faollashtiradi. Masalan, bir talaba o‘qituvchi rolini bajaradi, qolgan talabalar esa turli xususiyatlarga ega o‘quvchilar obrazini tanlaydi: faol, sust yoki til to‘sig‘iga duch kelayotgan o‘quvchi. Bo‘lajak o‘qituvchining vazifasi barcha ishtirokchilarni darsga jalb etishdan iborat. Buning uchun u o‘qitish usullarini vaziyatga moslashtirishi, improvizatsiya qilishi va har bir o‘quvchiga individual yondashuvni tanlashi kerak.

4. O‘yin texnologiyalari va geymifikatsiya

Kreativlik zamonaviy ta’lim vositalaridan maqsadli foydalanish qobiliyati bilan ham bog‘liq. Talabalarga Kahoot va Baamboozle kabi platformalar imkoniyatlarini o‘rganish, shuningdek, ular yordamida o‘quv topshiriqlarini mustaqil loyihalash vazifasi berilishi mumkin. Masalan, odatiy grammatika testi yoki lug‘at mashqini o‘yin elementlariga asoslangan topshiriqqa aylantirib, uni dars maqsadlariga moslashtirish talab etiladi. Bu jarayon texnologik kreativlikni rivojlantiradi hamda geymifikatsiyani shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki didaktik yondashuv sifatida qo‘llashga o‘rgatadi.

5. Ijodiy ta’lim muhitini yaratish

K. R. Rojersning inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish va ijodiy rivojlanish haqidagi qarashlari ta’lim jarayonida qo‘llab-quvvatlovchi muhitning ahamiyatini ko‘rsatadi [7]. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun oliy ta’lim o‘qituvchilari quyidagi shart-sharoitlarni yaratishi maqsadga muvofiq:

— turli va muqobil javoblarni rag‘batlantirish;

— xato va kamchiliklarni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilish;

— mustaqil qaror qabul qilishni talab etadigan ochiq topshiriqlar berish (masalan, Past Simple mavzusini o‘rgatish uchun yangi o‘yin ishlab chiqish).

Xulosa. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish izchil va maqsadli pedagogik yondashuvni talab etadi. Divergent fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar va geymifikatsiya talabalarning pedagogik muammolarga mustaqil hamda muqobil yechimlar topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bois oliy ta’lim muassasalarida e’tiborni bilimlarni faqat reproduktiv o‘zlashtirishga emas, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratishga ham qaratish lozim. Bunday yondashuv kelajakdagi pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish va maktablarda chet tilini o‘qitish sifatini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Richards J. C.** Creativity in Language Teaching // Iranian Journal of Language Teaching Research. — 2013. — Vol. 1, No. 3. — P. 1–18.

2. **Guilford J. P.** The Nature of Human Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1967.

3. **Wallas G.** The Art of Thought. — New York: Harcourt, Brace and Company, 1926.

4. **Osborn A. F.** Applied Imagination: Principles and Procedures of Creative Thinking. — New York: Charles Scribner's Sons, 1953.

5. **Dewey J.** Experience and Education. — New York: Macmillan Company, 1938.

6. **Vygotsky L. S.** Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

7. **Rogers C. R.** On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. — Boston: Houghton Mifflin, 1961.

ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING